
KUSHON PODSHOLIGI**Mahmudova Zulfiya Alimjanovna***Andijon Davlat pedagogika instituti**Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası o`qituvchisi***O`rozov Zayniddin Jumanazar o`g`li***Ijtimoiy gumanitar va san`at fakulteti 102-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Kushon davlati, miloddan avvalgi I asrda Markaziy Osiyo va Hindistonning shimoliy qismida joylashgan kuchli imperiya bo'lib, savdo va madaniyat almashuvining markazi sifatida tanilgan. Ushbu maqolada Kushon tarixi, hukmdorlari, iqtisodiy hayoti, din va madaniyati haqida ma'lumot beriladi. Kushonlar, buddizm va boshqa dinlarning tarqalishida muhim rol o'ynadilar.*

Kalit so`z: *Kushon, imperiya, tarix, Markaziy Osiyo, Hindiston, savdo, buddizm, madaniyat, din, hukmdorlar, iqtisodiyot, ko'chmanchilar, san'at, arxeologiya, ijtimoiy tuzilma, pul tizimi, koloniyalar, mahalliy xalqlar, budda haykallari, meros.*

Abstract: *The Kushan state was a powerful empire located in Central Asia and northern India in the 1st century BC, known as a center of trade and cultural exchange. This article provides information about the history, rulers, economic life, religion and culture of Kushan. The Kushans played an important role in the spread of Buddhism and other religions.*

Key word: *Kushan, Empire, History, Central Asia, India, Trade, Buddhism, Culture, Religion, Rulers, Economy, Nomads, Art, Archaeology, Social Structure, Monetary System, Colonies, Indigenous Peoples, Buddha Statues, Heritage.*

Абстрактный: *Государство Кушан — могущественная империя, расположенная в Средней Азии и северной Индии в I веке до нашей эры, известная как центр торговли и культурного обмена. В данной статье представлена информация об истории, правителях, экономической жизни, религии и культуре Кушана. Кушаны сыграли важную роль в распространении буддизма и других религий.*

Ключевые слова: *Кушан, Империя, История, Средняя Азия, Индия, Торговля, Буддизм, Культура, Религия, Правители, Экономика, Кочевники, Искусство, Археология, Социальная структура, Денежная система, Колонии, Коренные народы, Статуи Будды, Наследие.*

Kirish. Qadimgi Kushon podsholigi, tarixan, O'rta Osiyo va Shimoliy Hindiston hududida joylashgan, miloddan avvalgi I asrda tashkil topgan muhim davlatlardan biridir. Kushonlar, o'zlarining keng qamrovli madaniyati, iqtisodiy qudrati va siyosiy ta'siri bilan tanilgan. Ushbu podsholik, O'rta Osiyodan Hindistonning shimoli-sharqigacha bo'lgan keng hududni egallagan va bu mintaqada turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasida muhim ko'prik vazifasini o'ynagan.

Kushon podsholigining tarixi miloddan avvalgi I asrda, Xunhu va Yuezhi xalqlarining markaziy Osiyo orqali ko'chishi bilan boshlanadi. Ular, Hindistonning shimoliy qismiga kirib, o'z hukmronligini o'rnatdilar. Ushbu davrda, Kushonlar iqtisodiy jihatdan juda rivojlangan, savdo yo'llari orqali O'rta Osiyo, Xitoy va Hindiston bilan aloqalar o'rnatgan. Kushon podsholigi, yo'l-transport tarmoqlarini rivojlantirish, iqtisodiy integratsiya va madaniy almashuvda muhim rol o'ynadi.

Kushonlar, o'zlarining madaniyatida Hellenistik, hind, va mahalliy an'analarning birlashishini ko'rsatadi. Ular san'at, arxitektura, adabiyot va diniy hayotda muhim yutuqlarga erishdilar. Kushonlar, buddizmni qabul qilib, uni rivojlantirdilar va buddiy san'at, masalan, Buda haykallari va templearning yaratilishida katta hissa qo'shdilar. Buning natijasida, Kushon podsholigi o'zining diniy va madaniy merosi bilan nafaqat Hindiston, balki boshqa mamlakatlarga ham ta'sir ko'rsatdi.

Ushbu referatda, Kushon podsholigining tarixi, madaniyati, iqtisodiy rivojlanishi va siyosiy holati haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, Kushonlarning xalqaro savdoda tutgan o'rni, buddizm va boshqa diniy oqimlar bilan aloqalari, shuningdek, madaniy merosi va san'atiga oid muhim jihatlar ko'rib chiqiladi. Bu referat, Kushon podsholigining nafaqat o'z zamonidagi, balki zamonaviy dunyoda ham o'rni va ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Kushon podsholigi – o'rta osiyo va shimoliy hindistondagi qadimiy davlat (milodiy 1—4-asrlar). Milodiy 1-asrning 1-yarmi yoxud o'rtalarida yuechjilar tasarrufidagi Kushon mulkining yuksalishi natijasida vujudga kelgan.

Massagetlar (Xitoy yilnomalarida – yuechji) miloddan avvalgi 140 yil [Sirdaryo](#) ortidan [Baqtriyaga](#) kelib, [saklarni](#) yenggan va [Yunon-Baqtriya podsholigi](#) o'rnida 1 asr davomida 5 ta qabilaga bo'linib yashagan. Bular kushon (Xitoy yilnomalarida guysuan) qabilasi jabg'usi [Kujula Kadfiz](#) (Kadfiz I) milodiy 1-asrda qolgan 4 ta qabilani bo'ysundirib, o'zini hukmdor deb e'lon qilgan.

„Kushon“ nomi yo sulola yoki qabilaga oid bo'lib, u ilk bor miloddan avvalgi 1-asr oxiri – milodiy 1-asr boshida hukmron bo'lgan podshoh „Geray“ – Sanab zarb qildirgan tangalarda qo'llangan. Kushonlarning dastlabki mulklari hududiga Shim.

Baqtriya (Tojikiston hamda O‘zbekistonning janubi, Turkmanistonning janubi-sharqidagi hududlar) kirgan. Dastlab jabg‘u, keyinchalik podsho unvoni bilan davlatni idora qilgan Kadfiz I Kushon podsholigiga asos solgan bo‘lib, uning davrida kushonlar hozirgi [Afg‘oniston](#) bilan [Pokistonning](#) aksariyat qismini istilo qilgan. Kadfiz I ning vorisi Vima Kadfiz hukmronligi davrida Hindistonning aksariyat qismi Kushon podsholigiga qo‘shib olingan. Kushon podsholigining eng ravnaq topgan davri Kanishka hukmronlik qilgan vaqtga to‘g‘ri keladi. O‘rta Osiyoda kushon mulklarining shim. chegarasi Hisor tizmasi bo‘ylab, u yerdardagi tog‘ daralarida g‘oyatda mustahkam chegara devorlari qurilgan.

Kushon podsholigi davrida janglar tez-tez bo‘lib turishi natijasida mamlakatda harbiy asir-qullar miqdori oshib borgan. [Xitoy](#) va [Parfiya](#) bilan kurash olib borayotgan Kushon podsholigi Yaqin Sharqda hukmron bo‘lish uchun Parfiya bilan urushayotgan [Rimning](#) ittifoqchisi edi. Biroq savdo manfaatlari bu davlatlarni o‘zaro yaqinlashtirgan. „Buyuk ipak yo‘li“ bo‘ylab xalqaro savdoning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratilgan. Sharqda – Sharqiy

Turkistonning qo‘shib olingan shaharlar—vohalari orqali Xitoy bilan, jan.da – kushonlarga tobe Shim. Hindiston bilan, g‘arbda – dengiz yo‘li bilan, Misr orqali yoki quruqlikdagi yo‘l bilan Eron orqali O‘rta dengiz havzasidagi Rim imperiyasi shaharlari bilan, shimolda Xorazm va Uralbo‘yi orqali Sharqiy Yevropa bilan savdo qilingan. Janubiy O‘zbekistondan kushonlar davriga oid 100dan ziyod shahar va qishloq harobalari aniqlangan. Bu davrda shahar va qishloq o‘zaro mustahkam aloqada bo‘lgan: har 1 shahar atrofida ko‘plab mayda qishloqlar joylashgan.




Kushon podsholigi siyosiy hokimiyat ruhoniylar qo‘lida bo‘lgan davlat bo‘lib, unda podsho dunyoviy rahbar bo‘lish bilan birga bosh kohin ham edi. Davlat satraplik (qarang [Satrapiya](#)) larga bo‘lingan bo‘lib, ularning satrapparn ayrim erkinliklarga ega edi. Kushon podsholigi quldorlik davlati bo‘lsada, unda qishloq jamoasi muhim o‘rin tutgan. Kushon podsholari mamlakatda keng ko‘lamda dinlararo murosasozlik siyosatini yurgizgan: aholi, asosan, buddizmnmg mahayana mazhabiga e‘tiqod qilgan, shuningdek, mamlakatda zardushtiylik, otashparastlik, hinduizm kabi ko‘plab boshqa dinlar ham bo‘lgan. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo keng taraqqiy etgan. Pul tizimida ko‘proq zar va mis tangalar qo‘llangan.

Dehqonchilik, xususan, sug‘orma dehqonchilik rivojlangan, qishloq xo‘jaligi ekinlarining ko‘pchilik turi ekilgan. Milodiy 3-asr 1-yarmi yoki o‘rtalarida Kushon podsholigi barham topgan. Baqtriya – Tohariston maxsus mulk sifatida Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan. Uni kushonshoh unvonli sosoniylar xonadoni vakillari idora qilgan.

Beruniyning „Hindiston“ asarida [Kobulshohlardan](#) bo‘lgan Barhategin Kanik (Kanishka) avlodi deyilgan. Bu kushonlar turkligini haqida farazlarni isbotlaydi^[1].

Xitoy manbalarida [Yuechjilar](#) 5 ta qabiladan tashkil topgan deyilgan: Xiūmì (kínì), Guìshuāng (yángí), Shuāngmǐ (língín), Xídùn (língín) va Dūmì (líni) nomi bilan mashhur va shulardan biri guìshuang (kánín, qadimgi xitoycha: *kuj-s [s]raŋ), ya’ni kushonlar hisoblanadi. Amerikalik olim Christopher I. Beckwith fikricha, kushonlar va [yuechjilar Eroniy xalqlardan](#) biri bo‘lgan [toxarlardan](#) kelib chiqqan.^{[2][3]} Yapon olimi Kazuo Enoki Kushonlarni Eroniy qabilalardan biri [Saklardan](#) kelib chiqqan deya qayd etgan.^[4] Amerikalik olimlar James Patrick Mallory va Victor Henry Mair ta’kidlashicha, yuechjilar va kushonlar dastlab ko‘chmanchi [Eroniy xalqi](#) bo‘lgan, ular keyinchalik o‘troq [toxarlar](#) tomonidan qisman assimilyatsiya qilingan.^[5]

Yuechjilar „Buyuk tarixchining yozuvlari“ va „Xan kitobi“da hozirgi Xitoyning shimoli-g‘arbidagi Sharqiy Turkiston va Gansuning shimoli-g‘arbiy qismidagi yaylovlarda yashab, ularning podshohi Xiongnu (kēng) tomonidan boshi kesilgunga qadar yashaganligi tasvirlangan. Ular ham Xitoy bilan jang qilgan, bu esa oxir-oqibat ularni miloddan avvalgi 176-160 yillarda g‘arbga ko‘chib o‘tishga majbur qilgan.



Hindistonda Kushon imperatorlari tanga zarb qilishda muntazam ravishda sulola nomidan *KOĀNO* („Koshano“) dan foydalanar edilar.^[6] Brahmi yozuvidagi [sanskrit](#) tilidagi bir qancha yozuvlar, masalan, Vima Kadfizlar haykalining Mathura yozuvi Kushon imperatorini Ku-ṣā-ṇa (Kushana) deb ataydi. Ba’zi keyingi hind adabiy manbalarida Kushonlar Turushka deb atalgan, VII asrda [Toxaristonning G‘arbiy Turk xoqonligi](#) qo‘liga o‘tganligi sabab keyingi sanskrit manbalarida bu nom Turk nomi bilan adashtirilgan.^[7] Jon M. Rozenfildning fikricha, Turushka va Tukhara hind yozuvlaridagi Toxari so‘zining o‘zgarishidir. Amerikalik tarixchi olim André Winkning so‘zlariga ko‘ra, "hozirda hech bir tarixchi

ularni turk-mo‘g‘ul yoki „xun“ deb hisoblamaydi, garchi ularning O‘rta Osiyodan kelib chiqishiga hech qanday shubha yo‘q”.

Madaniyati Kushon podsholigi [Rim](#), [Parfiya](#) va Xitoy bilan har jihatdan bellasha olgan qadimiy Sharqdagi eng qudratli saltanatlardan biri bo‘lib, 2 asr mobaynida osiyoliklarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga katta ta’sir o‘tkazgan. Bir saltanat tarkibida 1 necha mamlakatlar, xalq va elatlarning birlashuvi turli madaniyatlarni o‘zaro yaqinlashtirdi, davr madaniyatlari [Baqtriya](#), yunon, sak va hind madaniyatlarini mujassamlashtirdi. Ammo, Kushon podsholigi madaniyati tarixining ayrim jihatlari hanuz noaniq bo‘lib, tarixchi, sharqshunos va arxeolog olimlar ularga oydinlik kiritish uchun izchil va chuqur ilmiy tadqiqot olib bormoqdalar. Chunonchi, bu borada 1913 va 1960-yillarda London, 1968-yil Dushanbe, 1970-yil Kobulda xalqaro simpoziumlar o‘tkazildi, YUNESKO qoshidagi Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini o‘rganish komissiyasi esa kushonlar tarixi va madaniyatini o‘rganishni o‘z oldiga asosiy vazifalardan biri qilib qo‘ydi.

Arxeologlar Kushon madaniyatiga oid Bagram, [Balx](#), Began, Surxkxo‘tal (Afg‘oniston), Kosambi (Hindiston), Sirsukx, Taksila (Pokiston), Ayritom, Bozorqala, Dalvarzintepa, Zartepa, Ko‘hna Voye, Termiz, Xayrobodtepa, Xolchayon



(O‘zbekiston), Kayqubodshoh, Ko‘hnaqal’a, Shahrinav, Munchoqtepa (Tojikiston)da qazish ishlari olib bordi. Arxeologik topilma va ko‘hna yozma manbalar asosida kushonlar madaniyatiga doyr quyidagi muhim ilmiy ma’lumotlar aniqlandi: burjli mustahkam mudofaa devoriga ega bo‘lgan shahar qurilishi taraqqiy etgan, bir necha o‘nlab shunday shaharlar, ko‘plab yirik sug‘orish inshootlari qurilgan. Shaharlar ichida arklar mavjud bo‘lib, ularning atrofini turli binolar majmuasi qurshab turgan. Kushon podsholigining shim.-g‘arbiy hududlaridagi binolar qurilishida ko‘proq xom g‘isht va paxsadan, janubi-sharqida esa toshdan foydalanilgan. Shaharlar, odatda, daryo bo‘ylarida, strategik jihatdan qulay joylarda bunyod etilgan. Ular podsho saroyi, boy-zodagonlar va hunarmandlar mahallasi, ko‘cha va maydonlar, hovo‘zlar, turli dinlarga mansub inshootlar, ekinzor va bog‘lardan iborat bo‘lgan. Uylar ko‘p xonali,

hashamatli bo‘lib, ba‘zilari ikki qanatliqilib qurilgan. Hovli sahni, xonalar poli, zinalar va boshqalarda turli hajmdagi pishiq g‘ishtlar qo‘llangan. Ayvon yog‘och ustunlari ostiga ohaktoshdan yo‘nilgan chiroyli tagkursilar o‘rnatilgan. Tomdan to‘shadigan suvlar uchun maxsus sopol tarnovlar ishlatilgan. Bino va xonalar haykaltaroshlik, tasviriy san‘at asarlari bilan bezatilgan. Haykal va rasmlarda, asosan, podsholar, podsho xonadoni a‘zolari, boy-zodagonlar, sozanda va masharabozlar tasvirlangan (mas, Xolchayonda). Budda diniga mansub inshootlarda esa Budda va uning safdoshlari, izdoshlari, kohinlar va xizmatkorlar ifodalangan (mas, Ayritom, Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepatsa). Haykallar, asosan, ohaktosh, loy va ganchdan tayyorlangan, ular orasida sirtiga tilla suvi yuritilganlari ham bor. Devoriy suratlarda esa diniy va bazm marosimlari, tabiat manzaralari, suvoriylar tasvirlangan. Kulolchilik taraqqiy etgan, topilgan sopol idishlar xilma-xilligi va o‘zining nozik, jarangdorligi bilan alohida ajralib turadi. Amaliy san‘at keng rivojlangan, uning eng yaxshi namunalari Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajida saqlanmokda. Zeb-ziynat buyumlari, mehnat va jang qurollari yasash, mato to‘qish taraqqiy etgan. Kanishka I davrida Kushon-Baqtriya tili davlat tili sifatida qabul qilingan. Aholi, asosan, buddizm dinining mahayana mazhabiga e‘tiqod qilgan, ko‘plab budda ibodatxonalari qurilgan, shuningdek, otashparastlik, hinduizm ham keng tarqalgan. Kanishka buddizm tarixida birinchi bo‘lib vaqt-vaqti bilan diniy yig‘in chaqirib turishni joriy etgan. Dastlabki yig‘inda buddizmning mazkur yangi mazhabi – mahayana rasmiylashtirilgan. Bu esa buddizmning Osiyo mamlakatlarida keng tarqalishiga, uning jahon dinlaridan biriga aylanishiga sabab bo‘lgan. Topilgan tangalarning orqa tomonida turli ma‘budlar – Mixra-Mitra (Quyosh ma‘budi), Otash (olov ma‘budi), Farr (omad va ma‘murchilik ma‘budi) va boshqa tasvirlanganligi buni isbotlaydi. Saltanatda savdoning rivojlanishi yozuvning keng ko‘lamda tarqalishiga imkon yaratgan. Oromiy yozuvi asosida sug‘d va xorazmiy yozuvlari vujudga kelib, taraqqiy etdi. Hind alifbosiga asoslangan kharoshthi yozuvi namunasi ilk bor Termizdan, teri va taxtaga bitilgan xorazmiy yozuvi namunasi esa Tuproqqal‘adan topildi. Kushon podsholigi yerdaridan o‘tgan Buyuk ipak yo‘li tashqi savdoning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatganligi aniqlandi. Kushon podsholari zarb qilgan oltin, kumush va mis tangalar Efiopiya, Skandinaviya, Italiya va boshqa ko‘pgina mamlakatlarda topildi. Bu esa Kushon podsholigi chet mamlakatlar bilan keng miqyosda savdo va madaniy aloqalar olib borganligidan dalolat beradi. Sharkdan olib kelingan ipakka G‘arb bozorlaridagi mollar almashtirilgan. Umuman savdoda ko‘p tovarlar qatori dorivorlar, Rim tilla tanga va taqinchokdari, fil suyaklari va undan

tayyorlangan turli buyumlar hamda „tirik tovar“ – sozanda, raqqosa va hunarmand qullar ham bo‘lgan. Kushon podsholigining dastlabki poytaxti O‘zbekistonning jan.dagi Dalvarzintepada bo‘lgan, podsho Kanishka davrida esa Peshovar shahriga ko‘chirilgan. Ayni shu davrda badiiy, san’at maktablari (Gandhara, Matxura, Baqtriya) shakllandi. Kanishka adabiyot va san’at homiysi bo‘lib, Kashmir viloyatida Kanishkapur shahriga asos soldi. Uning saroyida mashhur buddaviy olimlar Pareva va Vasumitra, buyuk shoir va faylasuflar Ashvagxosha, Matricheta, Vagarjuva hamda Charaka yashab ijod qilgan.

Kushon podsholigiga doir yozma manba va arxeologik topilmalar kushonlar madaniyatini o‘rganish, ularning O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston xalqlari madaniyati taraqqiyotida tutgan o‘rnini ilmiy baholashda muhim ahamiyatga ega. Kushon podsholigi siyosiy tarixi va madaniyati o‘tmishining hali to‘la, haqqoniy yoritilmagan jihatlari ko‘p bo‘lib, O‘zbekiston, Hindiston, Fransiya, AQSH, Italiya, Vengriya, Tojikiston, Afg‘oniston, Rossiya, Yaponiya olimlari ularni aniqlash borasida chuqur, izchil ilmiy tadqiqotlarni davom ettirmoqda.^[8]

Kushon davlati haqida tarix kitoblari keng ma’lumot beradi. Markaziy Osiyoda imperiyalarning eng qadimiysi, davriy jihatdan eng yashovchani (milodiy I-IV asrlar) Kushon davlati bo‘lgan. O‘z davriga nisbatan mislsiz ulkan mintaqalarni egallagan Kushon davlati chegaralari – sharqda [Xitoy](#), g‘arbda [Kaspiy dengizi](#), janubda [Hindiston](#) va shimolda Orol bo‘ylarigacha etib borgan. Qadimgi dunyo madaniyatining uch yirik manbai – hind, fors va turk xalqlari tutashgan markaziy zaminda tashkil topgan ulug‘ davlat.

Yuechjeylarning eramizdan avvalgi [II asr](#) o‘rtalarida [Grek-Baqtriya](#) davlatiga bostirib kirishi ushbu davlatni tamomila tugatilishiga olib keldi. Yuechjeylarning dastlabki mulklari shimoliy Baqtriya hududlarida bo‘ldi (zamonaviy O‘zbekistonning janubiy hududlari va Tojikiston). Kushon davlati eramizning 1-asri birinchi yarmida yuechjeylar davlati amirliklaridan biri Kushonning yuksalishi oqibatida yuzaga keldi. Kushon xitoychada Guyshuan deb talaffuz qilinib, yuechjey qabilalaridan birining nomi bo‘lish ehtimoli bor. Davlat asoschisi yabgu (amir) bo‘lgan. Keyinchalik podshoh Kudjula Kadfiz hukmronligi ostida kushonlar hozirgi Afg‘oniston va Pokistonning katta qismini bosib oldilar. Uning merosxo‘ri X hukmronligi davrida kushon mulklariga Hindistonning katta bir qismi qo‘shildi. Kushon davlatining gullab-yashnashi Kanishka hukmronligi davriga to‘g‘ri keldi (taxminan eramizning 78-123 yillari). O‘sha davrda poytaxt Baqtriyadan Peshovorga ko‘chirildi, mamlakat sarhaddlari esa Hindiston va Xo‘tongacha bo‘lgan o‘lkalarni qamrab oldi. Markaziy

Osiyoda Kusxon davlatining chegaralari hozirgi O‘zbekiston janubidagi Hisor tog‘ tizmalari cho‘qqilaridan o‘tgan. O‘sha yerdagi baland tog‘ daralarida (Darband) mustahkam chegara inshootlari qad ko‘tardi. O‘sha davrlarda davlat sarhadlarida yangidan-yangi shaharlar qad ko‘tardi, Hindiston, Xitoy va Rim imperiyasi bilan savdo munosabatlari o‘rnatildi. Pompeyda olib borilgan qazish ishlari mobaynida kusxon tangalari hamda kusxon ustasi tomonidan suyakdan yasalgan figuralar topildi. Kusxon davrida me‘morchilik yuksak rivojlandi. Ayniqsa saroylar va ibodatxonalar qurilishiga katta e‘tibor qaratildi. Kusxon hukmdorlarining [Xolchayondagi](#) saroyida va eski Termiz va Dalvarzindagi budda ibodatxonalarida yuqori badiiy did bilan ishlangan devor chizgilari va haykaltaroshlik namunalari yaxshi saqlanib qolgan.

Xolchayon, Dalvarzin va [Ayritomda](#) olib borilgan qazish ishlari davomida kusxon ustalarining yuksak mahoratidan dalolat beruvchi bronza idishlar, muhtasham shag‘amsupalar, ko‘zgular hamda zargarlik mahsulotlari topilgan. Dehqonchilik imperiya iqtisodiyotining tayanchi bo‘lgan. Yer hosildorligini oshirish maqsadida turli o‘g‘itlardan keng foydalanilgan. Tog‘ oldi hududlari va cho‘llar chorvachilik maqsadlarida foydalanilgan.

Termizda olib borilgan qazuv ishlari davomida oramiy tili asosida yozilgan xatlar topilgan. Kusxon kursiv xati o‘zining o‘tkir burchakli, kvadrat va aylana shaklidagi harflari bilan ajralib turar hamda o‘sha davrlarda juda keng tarqalgan edi. Kanishka davrida Kusxon davlatiga buddizm kirib keladi va tez orada davlat diniga aylanadi. Ammo shu bilan birga zardo‘shiylik va mahalliy O‘rta Osiyo, Hindiston, Eron, Yunoniston va Misr xalqlari dinlari ham o‘z kuchini yo‘qotmaydi. Kusxon davlati eramizning 3-asri birinchi yarmining oxirida barham topdi. Baktriya va Toxariston maxsus mulk huquqi ostida Sosoniylar imperiyasi tarkibiga qo‘shildi. Ushbu imperiya sosoniy podshohlar xonadoni a‘zolari tomonidan boshqarilib, ular kusxonshoh tituligi egalik qilgan.

Xulosa. Qadimgi Kushon podsholigi, o‘zining tarixi, madaniyati va iqtisodiy rivojlanishi bilan O‘rta Osiyo va Hindiston tarixida muhim bir o‘rin egallaydi. Ushbu podsholik, o‘zining keng hududlari va siyosiy kuchi bilan birga, madaniy va iqtisodiy hayotda ham o‘ziga xos iz qoldirdi. Kushonlar, o‘zlarining iqtisodiy qudratini savdo yo‘llarini rivojlantirish orqali amalga oshirdilar, bu esa ularning xalqaro miqyosda kuchli ta‘sir ko‘rsatishlariga imkon berdi.

Kushon madaniyati, o‘z ichiga Hellenistik, hind va mahalliy an‘alarni olgan holda, o‘zining yuksak san‘ati va adabiyoti bilan tanilgan. Buddizmning Kushonlar tomonidan qabul qilinishi va rivojlantirilishi, buddiy san‘at va diniy hayotning

shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Kushonlar, buddizmning tarqalishiga yordam berish orqali, o'z vaqtida boshqa xalqlarga ta'sir etishga muvaffaq bo'lishdi.

Kushon podsholigining tarixi, shuningdek, xalqaro savdo va madaniyat almashuvining rivojlanishi bilan bog'liq. Ular, O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi savdo yo'llarida muhim ko'prik bo'lib, bu jarayonlarning har ikki tomonga ham foydali bo'lishiga yordam berdi. Kushonlar, iqtisodiy aloqalar orqali turli xalqlar o'rtasida madaniy almashuvlarga hissa qo'shdilar, bu esa ularning madaniyatini boyitdi.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi Kushon podsholigi, tarixan, nafaqat O'rta Osiyo va Hindiston, balki butun dunyoda madaniyat va iqtisodiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatgan bir davlattir. Ushbu referat orqali Kushonlarning tarixiy ahamiyati, madaniy merosi va siyosiy kuchi haqida tushuncha hosil qilish mumkin. Kushonlar, o'zlarining xilma-xil madaniyati va tarixi bilan, bugungi kunda ham ilmiy va tarixiy izlanishlarda muhim ahamiyatga ega. Ularning merosi, keyingi avlodlar uchun saboq va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Kushon podsholigining tarixi va madaniyati, O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi tarixiy aloqalar va madaniyatlar o'rtasida muhim ko'prik vazifasini o'ynadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Xrestomatiya po istorii Drevnego Vostoka, pod. Red;
- 2.V. V. Struve i D. G. Redera, M., 1963; Struve V. V.;
3. Qadimgi Sharq tarixi, T., 1956;Turayev B. A.;
- 4.Yegipetskaya literatura, t. I, M., 1920;
- 5.Matye M. E., Iskusstvo Drevnego Yegipta, M., 1958;
- 6.Vseobshaya istoriya arxitekturi, t. I, M., 1970 Inaya kultura Yegipta, v kn.;
- 7.Muzikalnaya kultura drevnego mira, [Sb. statey], L., 1937; L a u yer J. F.,
- 8.Zagadki yegipetskix piramid, per. s frans., M., 1966; Ney
- 9.Briant, P. (2002). From Cyrus to Alexander: A History of the Persian Empire.
- 10.Winona Lake: Eisenbrauns.
- 11.Pugachenkova G. A., Xalchayan, Toshkent, 1966;
- 12.Gafurov B. G., Ko'shanskaya epoxa i mirovaya sivilizatsiya, Moskva, 1968;
- 13.Staviskiy B. Ya., Ko'shanskaya Baktriya. Problemi kulturi, Moskva, 1977;
- 14.Pugachenkova G. A., Rtveladze E. V., Dalverzintepa – ku-shanskiy gorod va yuge O'zbekistova, Toshkent, 1978;

-
- 15.Litvinskiy B. A., Sedov A. V., Kulti i rituali ko‘shanskoy Baktrii, M, 1984;
- 16.Pugachenkova G. A., Rtveladze E. V., Severvaya Baktriya – Toharistan, T., 1990;
- 17.Kultura i iskusstvo drevnego O‘zbekistova [Katalog vistavki], kn. 1 i 2, M., 1991;
- 18.G‘iyosov T. G‘., Kadingi Hindiston tarixi, T., 2000.